

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA MADANIYAT



Qoraqalpog‘istonda kutubxona faoliyati

1-jadvaldan 2000-2017 yillarda kutubxonalar soni 255 taga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Kutubxona fondi 2000 - 2017 yillarda 5060,7 ming nusxadan 4123,0 ming nusxaga kamaygan. Kutubxona foydalanuvchilari ham 2000 - 2017 yillarda 347,5 ming kishidan 338,4 ming kishiga kamaygan.


1- jadval

Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (2000-2017 yillar)

	O‘lchov birligi	2000y.	2005y.	2010y.	2015y.	2017y.
Kutubxona muassasalari soni	birlik	441	443	179	188	186
Kutubxona fondi	ming nusxa	5060,7	4557,5	4708,9	4792,6	4123,0
Foydalanuvchilar soni	ming kishi	338,4	333,4	261,4	338,6	347,5

1-rasm


Kutubxona foydalanuvchilari soni dinamikasi (2000-2017 yillar)



2018 yil 1 yanvar holatiga kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni 347500 tani tashkil etadi: ulardan axborot-kutubxona markazlari foydalanuvchilari soni 13500 ta, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari foydalanuvchilari soni 102800 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalari foydalanuvchilari soni 4300 ta va boshqa kutubxonalardan foydalanuvchilari soni 22000 ta. (2-rasm).

2-rasm

2017 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlari (%da)



Qoraqalpog'iston Respublikasida muzeylar va teatrlar

2000 - 2017 yillarda teatrlar 1,3 marta ko'paydi, mos ravishda muzeyga tashrif buyuruvchilar 2000 yilda 133,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilda 211,1 ming kishini tashkil etdi, ya'ni 1,3 marta oshdi.

Teatrlar soni 2000 yilda 3 tani tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 4 tani tashkil etmoqda, shunga qaramay tomoshabinlar soni 2000 yilda 130,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib 166,8 ming kishini tashkil etmoqda (2-jadval, 3-rasm).

2- jadval


Muzey va teatrlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2000-2017 yillar)

	O'lchov birligi	2000y.	2005y.	2010y.	2015y.	2017y.
Muzeylar soni	birlik	3	3	4	4	4
Muzeyga tashrif buyuruvchilar	ming kishi	133,9	152,4	121,2	183,6	211,1
Teatrlar soni	birlik	3	3	3	4	4

Teatrga kelgan tomoshabinlar soni	ming kishi	130,3	250,7	201,5	154,0	166,8
-----------------------------------	------------	-------	-------	-------	-------	-------


3.1-rasm

Teatr soni dinamikasi (2000-2017 yillar)



3.2-rasm

Muzeylar soni dinamikasi (2000-2017 yillar)




Muzeylarda turli eksponatlar mavjud. Muzey eksponat fondlari 107529 tani tashkil etadi, shulardan: 1390 ta haykaltaroshlik buyumlari, 8696 ta rassomlik, 15454 ta numizmatika, 528 ta maishiy va etnografiya buyumlari, 26495 ta grafika, 13085 ta amaliy san'at buyumlari,

17927 ta suratlar, 11474 ta arxeologiya buyumlari, 4885 ta hujjatlar, 7593 ta va boshqalar (4-rasm).

4-rasm


2017 yilda muzey fondlari eksponat turlari bo'yicha, %da



Respublikada teatrlar soni 4 ta, musiqiy teatri 1 ta, qug'irchoq teatri 2 ta, yosh tomoshabinlar teatri 1 tadan mavjud. Teatrda quyilgan spektakllar soni 792 ta, teatrga kelgan tomoshabinlar soni 166,8 ming kishini tashkil etadi. (2-jadval).

5-rasm

2017 yilda janrlar bo'yicha teatrlar



Qoraqalpog'iston Respublikasida konsert tashkilotlari

2017 yilda konsert tashkilotlari soni 5 taga, konsertlar soni 88 taga, xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni 25.3 ming kishiga etdi. (3-jadval, 8-rasm).


3- jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2005-2017 yillarda konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2017 y.
Konsert tashkilotlari soni	<i>birlik</i>	4	5	4	5
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar	<i>ming.kishi</i>	80,0	27,3	17,7	25,3
Konsertlar soni	<i>birlik</i>	246	92	64	88

6- rasm


Qoraqalpog'iston Respublikasida 2005-2017 yillarda konsert tashkilotlari faoliyatining ko'rsatkichlari dinamikasi




Qoraqalpog'iston Respublikasida madaniyat va istirohat bog'lari

2017 yil mamlakatimizda madaniyat va istirohat bog'lari soni 14 tani tashkil etadi. Jami maydoni 97,4 gektarni egallaydi, dam olish obektlar soni 21 ta, attraksionlar soni 67 ta, jami qatnovlar 175,4 ming kishini tashkil etadi.

2017 yilda hududlar bo'yicha madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati (birlik)



2017 yilda hududlar bo'yicha attraksionlar soni va jami qatnovlar soni



Qoraqalpog'iston Respublikasida madaniyat va aholi dam olish markazlari

Asosan madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

2017 yilda hududlar bo'yicha muassasalar soni 57 tani tashkil etdi, o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar sonini 4-jadvaldan ko'rish mumkin.

**2017 yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining
asosiy ko'rsatkichlari (birlik)**

	Muassasalarning umumiy soni	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarlarda ishtirok etganlar - jami
Qoraqalpog'iston Respublikasi	57	1978	562,7
Nukus sh. tumanlar	6	84	11,9
Amudaryo	7	395	80,8
Beruniy	7	438	145,6
Qarauzyak	3	70	14,2
Kegayli	3	42	13,9
Qung'iroq	3	110	11,8
Kanlikul	2	52	18,7
Muynoq	1	20	2,3
Nukus	2	29	8,6
Taxiatosh	2	50	1,7
Taxtakupir	4	69	72,2
Turtkul	5	105	92,4
Xujayli	2	105	35,1
Chimbay	5	208	40,6
Shomanay	2	23	4,4
Ellikqala	3	178	8,5

Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni 1978 tani tashkil etdi, ulardan ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari 10,7% (213 ta), mavzuli, adabiy-badiiy kechalar 43,2% (855 ta), teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari 13,4% (265 ta), konsertlar 24,9% (492 ta)ni tashkil etadi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar 562,7 ming kishini tashkil etdi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi**

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **G.Mambetmuratova**

Tel.: (61) 222-79-83

(71) 230-82-04